



PROBLEMS OF EDUCATING YOUTH IN THE SPIRIT OF HIGH MORALITY AND WAYS TO SOLVE THEM

Murod Rustamovich Shokirov

Senior Lecturer

Department of Legal and Socio-Humanitarian Sciences

*Bukhara Academic Lyceum, Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan
Bukhara, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: education and upbringing, youth, high morality, historical thinking, moral values, spiritual education, moral consciousness, national identity, national pride, dialectical thinking.

Received: 08.08.25

Accepted: 09.08.25

Published: 10.08.25

Abstract: This article discusses the role and significance of the concept of morality in shaping a well-rounded individual, explores the problems of educating youth in the spirit of high moral values, and suggests possible solutions. Morality is presented as a broad concept reflecting intellectual, spiritual, and practical human activity. The article analyzes its origins, characteristics, functions, and importance in life. It also outlines the universal, national, regional, and personal dimensions of morality and their dialectical interrelations. The role and significance of morality in education and upbringing are also emphasized.

YOSHLARNI YUKSAK MA'NAVIYAT RUHIDA TARBIYALASH MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISH YO'LLARI

Murod Rustamovich Shokirov

*Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi bosh o'qituvchisi
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Buxoro akademik litseyi
Buxoro, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ta'lim va tarbiya, yoshlar, yuksak ma'naviyat, tarixiy tafakkur, axloqiy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya, axloqiy ong, milliy ong, milliy g'urur, dialektik tafakkur.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda ma'naviyat tushunchasining o'rni, ahamiyati va tarbiyalash muammolarini haqida baxs yuritildi, ularni hal etish yo'llari haqida mulohazalar bildiriladi. Ma'naviyat inson aqliy, ruhiy va amaliy faoliyatini aks ettiruvchi keng qamrovli tushuncha bo'lib, maqolada

uning kelib chiqishi, xususiyati va vazifalari, hayotda tutgan o’rni haqida baxs yuritiladi. Shuningdek ma’naviyatga xos bo’lgan umuminsoniylik, milliylik, mintaqaviylik, shaxsiylik kabi xususiyatlar hamda ular orasidagi dialektik xususiyatlar bayon etiladi. Shuningdek ma’naviyatning ta’lim va tarbiya jarayonlarida turgan o’rni va ahamiyati ko’rsatiladi.

ПРОБЛЕМЫ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ВЫСОКОЙ ДУХОВНОСТИ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Мурод Рустамович Шокиров

Старший преподаватель кафедры правовых и социально-гуманитарных наук

*Бухарского академического лицея Министерства внутренних дел Республики Узбекистан
Бухара Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: образование и воспитание, молодежь, высокая духовность, историческое мышление, нравственные ценности, духовное воспитание, нравственное сознание, национальное самосознание, национальная гордость, диалектическое мышление.

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и значение понятия духовности в формировании всесторонне развитой личности, обсуждаются проблемы воспитания молодежи в духе высокой духовности, а также предлагаются пути их решения. Духовность представлена как широкое понятие, отражающее интеллектуальную, душевную и практическую деятельность человека. В статье анализируются происхождение, особенности, функции духовности и её значение в жизни. Также раскрываются такие характеристики духовности, как универсальность, национальность, региональность, индивидуальность и их диалектические взаимосвязи. Особое внимание уделяется месту духовности в образовательном и воспитательном процессе.

Kirish

Har qanday jamiyat ijtimoiy hayotning o’zining barcha sohalari bo’yicha tarbiyalanganligi va mukammal ta’limga asoslanganligi bilan qudratlidir. Jamiyat hayotining yangilanib va rivojlanib borishi bu har ikki sohada ham jiddiy o’zgarishlarni talab qiladi. Ta’lim va tarbiya biri ikkinchisi bilan uzviy bog’liq holda jamiyatning bugungi holatini mustahkamlaydi va kelajak uchun keng yo’l ochib beradi. Bunday rivojlanish avvalo jamiyatning xarakteriga, iqtisodiy ahvoliga, boshqaruv usuliga bog’liq. Yangi O’zbekistonda jamiyat hayotining mazkur sohalarida tub o’zgarishlar sodir bo’ldi. Ta’lim va tarbiya sohasida yangi masalalar kelib chiqdi. Olimlar

ularni hal qilishga kirishdilar. Diqqat markazida yoshlar ta'limi va tarbiyasi masalasi turib qoldi. Bu osonlikcha hal bo'ladigan masala emas. Shuning uchun Sh. Mirziyoyev bu haqida: "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz"[1, b.145], degan edilar.

Metodologiya

Mazkur maqolada yoshlarni yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalash muammolarini yoritishda tarixiy-falsafiy, sotsiologik va mantiqiy-tahliliy metodlar asos qilib olindi. Metodologik yondashuv sifatida sivilizatsion nazariya, strukturalizm hamda ijtimoiy evolyutsiya nazariyasi qo'llanildi. Shuningdek, taqqoslash, kategoriyalar tahlili va konseptual fikrlesh orqali yoshlar tarbiyasidagi dolzARB masalalar va ularni hal etish yo'llari chuqur tahlil qilindi.

Muhokama va natijalar

Tarixan boy ma'naviy-ilmiy o'tmishga ega bo'lgan xalqlar o'z hayotini namunali darajada tashkil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Turkiy xalqlar, jumladan o'zbek xalqi ham faxrlansa arziydigan tarixiy boyliklarga ega. Ular iqtisodiy, siyosiy, badiiy, diniy-axloqiy sohalarda havas qilsa arzigulik yutuqlarga erishganlar. Ta'lim-tarbiya ishining jadal amalga oshirilishi va muvaffaqiyatlarga erishuvi avvalo mamlakatning iqtisodiy, keyin esa siyosiy ahvoliga bog'liq. Boshqaruv jihatdan demokratiyaga asoslangan jamiyatlarda xalqning fikr mulohazalariga qat'iy amal qilinadi, ularning taklifi qabul qilinadi. Bir so'z bilan aytganda boshqaruvda adolatlilik ta'lim va tarbiyaning kafolati hisoblanadi. Buni dunyoning totalitar boshqaruvga asoslangan mamlakatlarida sodir bo'lgan va bo'layotgan kamchiliklar misolida aniq ko'rishimiz mumkin. Qaysi jamiyatda so'z erkinligiga yo'l berilgan, ilmiy jarayonlarga keng yo'l ochilgan va qo'llab-quvvatlanayotgan bo'lsa o'sha joyda ta'lim va tarbiyaning ravnaq topib borayotganligini ko'ramiz.

O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilganidan keyin mamlakatning siyosiy, iqtisodiy hayotida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Endi oldingi buyruqbozlikka asoslangan ish uslubi bilan yashash mumkin bo'lmay qoldi. Xalqning haq-huquqlarini, erkin va ozod ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etuvchi, va himoya qiluvchi qonunlar chiqarildi. Bu sohada eng e'tiborga loyiq ish tarixiy bilimlarni egallashga keng yo'l ochilganligi bo'ldi. Yangicha tarixiy tafakkur o'tmishni barcha oq-qora dog'lari bilan oolib tashlashni talab qildi. Shu boisdan O'zbekiston prezidenti I.Karimov tarixchilar, faylasuflar, yozuvchilar bilan bo'lgan suhbatda O'zbekistonda bu sohada bajarilishi lozim bo'lgan dolzARB masalalarni ko'rsatdi va ularni tarixiy haqiqatni oolib tashlashga ruhlantirdi. "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi", degan talabni olg'a surdi. Shu talab asosida o'zbek xalqining o'tmishda tashkil qilgan sultanatlari haqida, iqtisodiy, ma'naviy, harbiy sohalarda erishgan yutuqlari va yo'l qo'ygan kamchiliklari ochila bordi. Lekin bu osonlikcha amalga oshgan emas. Chunki sobiq sovet davrida xalqimiz o'tmish hayoti bilan

bog'liq bo'lган juda ko'п tarixiy hujjatlar, osori atiqalar, xalq amaliy san'atining beba ho namunalari markazga tashib ketilgan edi. Bu jihatdan qadimshunoslar oldiga ham katta vazifalar qo'yildi. Ular mamlakatning turli hududlarida qarovsiz holda qolib ketgan tarixiy obidalarni va ularda yashirinib yotgan tarixiy ashyolarni topishga kirishdilar. Ular o'z tadqiqotlarini qadimshunoslikka bag'ishlangan asarlarida bayon etdilar.

Akademik J.Tulenov fikricha: "Bularning hammasi xalqimizning, ayniqsa yosh avlodning tarixiy ongini yangicha tafakkur asosida shakllantirishda katta ahamiyatga egadir. Endilikda yoshlarimiz maktablar va oliy bilimgohlarda o'zlarining jonajon tarixlarini katta qiziqish bilan o'rganib Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Dukchi Eshon singari milliy qahramonlarning faoliyatları bilan tanishmoqdalar. O'tmishimizning ko'pgina sahifalari hujjatlar, qulyozma materiallar, ilmiy manbalar asosida yoritilmoxda. Shuni g'urur bilan aytish joizki, mustaqillik tufayli biz g'aflat uyqusidan uyg'ondik, mamlakatimizda ulug' allomalar, mutafakkirlar, buyuk siymolarning tavalludlarini nishonlash, ularni yodga olish haqiqiy an'anaga aylanib, rasmiy tus olib bormoqda"[3, b.68].

Bularning barchasi yoshlarimiz ko'z o'ngida asl tarixni jonlanirish uchun zarur edi. "Agar biz yoshlar tarbiyasi bilan, muhtaram Islom Abdug'aniyevich aytganlaridek, muntazam shug'ullanib, bu masalani joy-joyiga qo'yemasak, ertaga kech bo'lishi mumkin. Nega deganda, farzandlarimiz ertaga bizga yo tashvish olib keladi, yo manfaat olib keladi"[1, b.91].

Xalqimizning o'tmishda kechgan iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy hayotini asl holida gavdalantirish uchun bir qancha e'tiborga molik bo'lган ishlar amalga oshirildi. Yozuvchilar, shoirlar o'z ijodiy ishlarini siyosiy ta'qiblardan ozod bo'lган holda amalga oshirdilar. Tarixiy tafakkurda yangicha erkin ruh paydo bo'ldi.

Siyosiy hayotda yo'l qo'yilgan ayrim kamchiliklar bu jarayonga o'zining salbiy ta'sirini ham ko'rsatdi. Lekin tafakkurga berilgan erkinlik xalqni boshlangan yangi yo'lidan chalg'ita olmadi. Bunday kamchilikni Makaziy Osiyo xalqlari hayotida chegaraviy yopiqlik, ba'zan, iqtisodiy masalalarda yuzaga kelgan kelishmovchiliklar misolida ko'rishimiz mumkin edi.

Bunday sharoitda ayniqsa faylasuflar, tarixchilar o'zlarining qat'iy, assoslangan ilmiy fikr mulohazalari bilan chiqdilar. Ayniqsa ularning e'tiborida yoshlarni hayotda vujudga kelgan dolzarb masalalarning mohiyatidan xabardor etish, ularni kelajakka to'g'ri yo'naltirish kabi ishlar bilan shug'ullandilar.

Bu ishda asosiy nazarda tutilgan masalalar tarixiy tafakkurni yangilash, qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantish, yoshlarda erkin tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish, ularda kelajakka ishonch kayfiyatlarini kuchaytirish, barcha hayotiy muammolarni hal etishda ilm-fan yutuqlaridan foydalanish kabi masalalar turdi.

"Haqiqatan ham, hozirgi vaqtida yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda. Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda"[1, b.124].

Asosan bu masalalarni hal qilish uchun ta'lif va tarbiyani yangicha tashkil qilish muhim edi. Bunga o'ziga xos tarzda kirishildi ham. Yangicha talqindagi tarixiy asarlar yozildi. Milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosida ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil qilindi. Eng e'tiborli narsa shu bo'ldiki, mamlakat bo'y lab shaharlarda me'morchilikning yangicha qiyofasi va ish usullari paydo bo'ldi. Urf-odatlarmiz yangilana boshladi. Hatto buni kiyim-kechaklarimizda, an'analarmizda, urf-odatlarmizda ham ko'rish mumkin. Ayniqsa ta'lif sohasidagi islohotlar, maktablarmizda ishga tushirilgan yangicha taribda o'qitish uslub va qoidalari, xususiy maktablar va oliy o'quv yurtlarining joriy qilinishi o'zining ijobjiy natijalarini bera boshladi. Yoshlarning ilm olishlari uchun qulay sharoit yaratildi.

"Hozirgi paytda respublikamiz rahbarlari siyosatida yoshlar orasida eng iqtidorli, salohiyatlilarini tanlab, saralab olib, ularning ilmiy, madaniy-ma'naviy jihatdan kamolotga erishishlari, zamонавија fan-texnika asoslarini chuqur o'zlashtirib olishlari uchun g'amxo'rlik qilish katta o'rın tutadi. O'zbekiston Respublikasining ertangi hayoti, porloq istiqboli nazarda tutilib ko'plab yoshlarimiz Turkiya, Xitoy, Yaponiya, AQSH, Olmoniya va boshqa xorijiy mamlakatlarga tahsil olish uchun yuborildi. Bu ish to'xtovsiz davom etayapti. Yoshlarimiz safida ingliz, nemis, fransuz, arab va fors tillarini biladigan, ulardan amalda foydalana oladigan kishilarning ko'payib borayotganligi istiqlolimiz, madaniy-ma'naviy taraqqiyotimiz uchun katta yutuqdir"[3, b.60].

Aytib o'tilganlarning barchasini og'ishmay amalga oshirish uchun avvalo yoshlarni yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalash kerak edi. Buning choralar ko'rila boshladi. Ta'lif jarayonida ma'naviy tarbiyaga e'tibor qaratildi. Hatto ma'naviy tarbiya davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. I. Karimovning "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" asarida, yoshlarni ma'naviy tarbiyasini yanada kuchaytirishga qaratilgan qonun va qarorlarda masalaning mohiyati va zaruriyati o'z aksini topdi. Ma'naviyat tushunchasiga hamma ham bir xilda ijobjiy munosabatda bo'lmadi. Ma'naviyatni juda mavhum, siyqasi chiqqan, keraksiz tushuncha sifatida talqin qiluvchilar ham bo'ldi. Lekin asrlar davomida xalqlarimiz hayotida shakllanib kelgan ma'naviyat kaltabin odamlarning fikridan o'zini himoya qila oldi. Xalqimizning yuksak ma'naviyati o'zining ulug' sarkardalari, olimlari, shoirlari va xalq ustalarining ijodlarida, bajargan ishlarida, aytgan gaplarida o'zini ko'rsatib turganligi bois xalq unga ishondi. Bu masalaga akademik, faylasuf olim J.Tulenov, akademik Erkin Yusupov, professorlar Abdulhafiz Jalolov, Qiyomiddin Nazarov va boshqalar chuqur falsafiy ilmiy munosabat ko'rsatdilar.

Ma'naviyatning rivojlanishi faqat axloqiy qadriyatlar yordamidagina amalga oshar edi. Shu boisdan ular ma'naviyat tushunchasini axloqiy qadriyatlar bilan bo'lgan aloqada tushuntirib berdilar. E. Yusupov fikricha: "Axloqiy qadriyatlar qadriyatlar sistemasida turli xalqlarning madaniyati, turmush tarzi, mehnat faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, e'tiqodi, psixologiyasi, diniy qarashlari, milliy manfaatlari, mafkurasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi"[4, b.121].

Ma'naviyatni rivojlantirish uchun asos bo'ladigan axloqiy sifatlar iymon e'tiqodlilik, andishalilik, oilaga muhabbat, bolajonlik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, farzandning otonalarga bo'lgan mehribonligi, diniy qadriyatlarga rioya qilish, fahm-farosatlilik, savodxonlik, mardlik, sahovatlilik, shirinsuhanlik, odillik, hayolilik, ilmni qadrlash, oqko'ngillik, mehnasevarlik kabilar bo'lib atarsiz ma'naviyatni tushuntirish mumkin emas edi. Milliy ma'naviyatimizni ana shunday qadriyatlar boy qilib kelgan, islom dinigacha bunday qadriyatlar bor edi. Mustaqillikdan keyin ham ularning safiga yangilari qo'shildi. Asosiysi ularning rivojlanishi uchun keng imkon yaratildi.

Shuningdek ma'naviy hayot deydi Q. Nazarov, madaniy taraqqiyotga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlardan biri-ma'naviyatning to'xtovsiz ravishda yangilanib borishi bilan bog'liq uzlucksiz va takrorlanib turuvchi jarayondan iborat. Ma'naviy hayot jamiyatda amal qiluvchi ijtimoiy me'yorlarga asoslanadi. Lekin bu me'yorlar o'z-o'zdan vujudga kelib, rivojlanmaydi, balki shu jamiyat fuqarolari, faol shaxslar ishtirokida amalga oshadi. Demak, ma'naviy hayotning yangilanib borishi va yashovchanligi, avvalambor shu jamiyat fuqarolari zimmasiga yuklatadigan asosiy masuliyatdir [5, b.94].

Akademik J.Tulenov "Qadriyatlar falsafasi" kitobida falsafa fani oldida turgan vazifalardan biri sifatida quyidagilarni ko'rsatib berdi: "Falsafa fani mustaqillik mafkurasi va uni hayotga tatbiq etish yo'llariga, kishilarni yuksak ma'naviyat asosida tarbiyalab, har tomonlama ma'naviy kamol toptirish masalalariga, shuningdek milliy merosimiz, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizdan, sharq falsafasi va islom ta'limotidan unumli foydalanib, kishilarni erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatishga jamiyatni ilmiy bilish va ilmiy boshqarishga, milliy va millatlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish kabi masalalarga e'tiborni kuchaytirmog'i lozim"[3, b.82].

Ushbu vazifadan kelib chiqqan holda J. Tulenov tomonidan insonni o'z-o'zini anglashi jamoatchilik bilan munosabatda bo'lishida, jamoatchilik ichida o'zini tutishida, farzandlik burchini o'tashi va bola tarbiyasida, oiladagi munosabatlarda, vatanni sevishida qo'llaniladigan ma'naviy-falsafiy asoslar shakllantirilishi kerakligi ko'rsatib o'tildi.

"Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga etishga intilishiga e'tibor qaratish

har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta'lim va ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo'lismiga undaydi"[1, b.27-28], - deydi Sh. Mirziyoyev.

Ma'lumki, ta'lim va tarbiya uzviy ajralmas, dialektik ta'sirda bo'lgan jarayondir. Ularning o'zaro ta'sirini ochish ta'limda ham tarbiyada ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiya tushunchasi keng qamrovli bo'lib, hajm jihatidan ta'lim tushunchasini o'z ichiga oladi. Ta'lim bilim berish tarbiyasidir. Tarbiyani xarakter jihatdan milliy va umuminsoniy tarbiyaga bo'lismumkin. Millat hayotida sodir bo'lgan iqtisodiy-siyosiy o'zgarishlar uning tarbiyasiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Axloqiy yangilanishlarga ham sabab bo'ladi. Milliy tarbiya millatning o'tmishi va hozirgi hayoti bilan bog'liq bo'lgan ilg'or fikrlarga asoslangan holda rivojiana boradi. O'zbek xalqining tarixida insonni komillik darajasiga erishuvi uchun xizmat qiluvchi tarixiy, badiiy asarlar, og'zaki ijod, amaliy san'at namunalari juda ko'p. Bularni o'qish ta'lim va tarbiyani yangi bosqichga olib chiqishi shubhasizdir. Shu bilan birga milliy tarbiya o'zining tor qobig'i ichiga ham qolib ketmasligi kerak. Bunda umuminsoniy qadriyatlardan ham keng ko'lamli foydalanish kerak bo'ladi. Axloq-odob tarbiyasi ko'p qirrali, murakkab jarayondir. Ulardan biri kishilarni samimiylamma, oddiylikka, kamtarlikka o'rgatishdir. Shubhasiz, inson aqli bo'lishi kerak. Har qanday rivojlanish aql yordamida amalga oshadi. Lekin undanda muhimrog'i, aql vijdonga bo'ysunmog'i kerak. Vijdonga bo'ysunmagan aql har xil xato xulosalarga kelishi ham tabiiy hol.

Ma'naviy qadriyatga e'tibor qilmaslik kelajak ildizlariga bolta urishdir. Bu jihatdan yoshlarni bilimdon, yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalashda akademik Erkin Yusupovning mulohazalari e'tiborga loyiqidir: "Maktablarda umumiylilik bilim beradigan ayrim fanlarni qisqatirib ularning o'rniga axloq va odob tarbiyasiga asos bo'ladigan fanlarni ko'proq kiritmoq kerak. Ayniqsa hozirgi hayotimizga ijtimoiy tarmoqlar keng ko'lamba kirib kelgan bir sharoitda yoshlar ota-onalaridan uzoqlashib, ijtimoiy tarmoqlar bilan bog'lanib qoldilar. Bir zamonlar tarbiyada milliylikka e'tibor qilinmas, baynalmilal tarbiyani ustun darajada ko'rilar edi. Aslida umuminsoniy qadriyatlarni bor ekan uning tarkibiga milliy qadriyatlarning bo'masligi mumkin emas edi"[4, b.128].

J. Tulenov esa masalaga quyidagicha yondashadi: "Maktab o'quv rejalarini va darsliklarda o'tmish merosimiz, urf-odatlarimiz, an'analarimiz to'liq o'z aksini topishi kerak. Ta'lim bobida jahon andozalariga munosib fan asoslarini yoshlarimizga singdirish bilan birga tarbiya bobida milliylikka ko'proq tayanishimiz lozim. Oliy bilimgohlar va o'rta maxsus bilim yurtlarining ham faoliyatini jumhuriyatimizning ehtiyojlariga, bozor iqtisodiyotining talablariga muvofiq ko'rib chiqish kerak. Mustaqil davlatning istiqboli, uning kuch-quvvati ham fan, madaniyat va san'at taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Shuni e'tiborga olgan holda fan bilan ishlab chiqarish-integratsiyaning, fan-texnika taraqqiyotini boshqarishning texnikaviy, xo'jalik shakllarini

muntazam takomillashtirib borish, dolzarb amaliy tadqiqotlar va tajriba-konstrukturlik yechimlarini kengaytirish, ularning samaradorligini oshirishni ta'minlash lozim"[3, b.79].

Mustaqillik sharoitida qadriyatlarni tushunishda o'ziga xos tarzda ish tutildi. Bu jihatdan I.A. Karimovning quyidagi fikri e'tiborga morlikdir: "Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan oq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar davomida yaratib kelingan g'oyat ulkan, beba ho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim masala bo'lib qoldi.

Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, ularning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz"[2, b.199].

O'zbekiston hayotida ma'naviy qadriyatlarga past nazar bilan qarovchilar ham chiqib goldilar. Ular ma'naviyat yoshlar tarbiyasiga to'siq bo'lmoqda degan da'vo qildilar. Masalan, bir qator olimlar va turli soha mutaxasislari ijtimoiy tarmoqlarda tashkil qilingan davra suhbatida shunday davo bilan chiqdilar. Ularningcha ma'naviyat yoshlarning istaklariga to'sqinlik qilayotgan, erkinligini bo'g'ayotgan emish. Agar ularning fikriga qo'shiladigan bo'lsak, insoniyat tomonidan erishilgan barcha ma'naviy boyliklar insoniyatning taraqqiyotiga to'siq bo'lgan deyishimizga to'g'ri keladi. Agar shunday bo'lsa insoniyatning daholari tomonidan yaratilgan ta'limotlar, olg'a surilgan ilmiy g'oyalar, badiiy-axloqiy yutuqlar keraksiz bo'lib qolgan bo'lar edi. Go'yoki Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy"lari, Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Alisher Navoiylarning "Hamsa"lari, hatto ulug' Firdavsiyning "Shohnoma" asarining ham hayotiy qimmati qolmagan bo'lar edi.

Ma'naviy qadriyatlarning hayotiy ahamiyatini ko'rsatishga ong va ma'naviyat masalasiga alohida e'tibor qaratish kerak. Ma'lumki, ong voqelikning miyadagi inikosi bo'lsa ma'naviyat o'sha ongning halollik, pokizalik va haqqoniylilik sifatlarini ifodasi hisoblanadi. Bu sifatlarga ega bo'lган ong jamiyatning axloqiy-ma'naviy rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Buni yaxshi anglagan holda mamlakatimizda taniqli olimlar ma'naviyat, ma'naviy tarbiya, axloqiy ong, tarixiy tafakkur masalalariga jiddiy e'tiborni qaratdilar. Ular o'zlarining kitoblarida, ilmiy maqolalarida, xalqaro anjumanlar va oliy o'quv yurtlarida o'qigan ma'ruzalarida va jamoatchilik orasida qilgan suhbatlarida ma'naviyatning mohiyati, rivojlanishi va tarbiyaviy ahamiyati haqida keng qamrovli tushuntirish ishlari olib bordilar. I.A. Karimov O'zbekistonda mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki davrlarida bu borada mavjud bo'lган vaziyatni chuqr dialektik taxlil etib quyidagi xulosaga kelgan edi. "Bir asrdan ziyod davom etgan totalitar qaramlikdan keyin bu jarayon dastlabki paytlarda mutloqo tabiiy ravishda o'ziga xos "inkorni inkor" sifatida kechdi. Biz avvalgi tuzumning qadriyatlarini shunchaki inkor etishning o'zi hech qanday bunyodkorlik dasturiga ega bo'lмаган siyosiy va madaniy ekstremizm xafini tug'dirishini anglar edik. Shu bilan birga,

o'tmish qadriyatlariga ana'nalariga va turmush tarziga betartib ravishda orqa-ketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka-hozirgi davrni qabul qilmaslikka, jamiyatning yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin. Ayni shu inkor etish onlarida ekstremistik ruhdagi muxolifatning vujudga kelish xafi tug'ildi. U aslini olganda, ma'naviyatga qarshi muxolifat bo'lishi mumkin edi. Jangari millatchilik, diniy murosasizlik va "o'zimizniki" bo'limgan hamma narsaga nafratning qorishmasi shunday muxolifatning siyosiy maqsadidir"[2, b.138-139].

Ma'naviyat sohasida kelib chiqqan turli xil qarashlar ma'naviyatni rivojlantirishning muhim masalalarini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi. Ma'naviyatning ildizlarini o'rganish zaruriyati dolzarb masalaga aylandi. Ma'lumki ma'naviyat avvalo irsiy imkoniyatlar zaminida shakllanadi. Bizning tarixiy o'tmishimizda yuksak ilmiy salohiyatga ega bo'lgan, o'z adolati bilan dunyonи boshqargan, she'riyat mulkining sultoniga aylangan ulug' insonlar yashab o'tganlar. Ma'naviyat ularga kuch, ishonch va qudrat baxsh etib kelgan. Har qanday tarixiy davrining, ijtimoiy shart-sharoitning ta'sirida shakllangan o'z ma'naviy qadriyatları bo'lган ma'naviyat inson faoliyatining barcha sohalari bilan bog'liq holda, ularga o'z ta'sirini o'tkazgan holda namoyon bo'lgan.

"Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir. Mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etishini inobatga olsak, bu nafadar jiddiy masala ekani yanada yaqqol ayon bo'ladi"[1, b.88]. Jamiyatda insonning maqsadlari ham ehtiyojlari ham ma'naviyat bilan bog'liq bo'ladi. Rivojlangan ma'naviyatdan xayrli ehtiyojlar va ulug' maqsadlar kelib chiqadi. Ma'naviyat rivojlanishi uchun ma'naviy ehtiyoj kerak. Ehtiyoj bo'limgan joyda hech qanday taraqqiyot va yuksalish ham bo'lmaydi. O'z navbatida ehtiyojning o'zi ham ma'naviy kamolotdan kelib chiqadi.

Mustaqillik sharoitida yangi ehtiyojlar kelib chiqdi. Bu ma'naviy kamolotni tezlashtirishga sabab bo'ldi. Qayerda ma'naviyat barqaror bo'lsa o'sha joyda moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish madaniyati ham yuksak bo'ladi. Buni biz o'z hayotimizda ko'rdik.

Inson ma'naviyati bir-biri bilan uzviy bog'langan aqliy, axloqiy, ilmiy, amaliy, mafukraviy sifati va fazilatlarining yaxlit tizimidir. Ma'naviyat uchun erkin ijodiy tafakkur kerak. Bu ma'naviy kamolotning birinchi sharti. Erkinlik bo'limgan sharoitda inson o'ziga xos ma'naviy imkoniyatni keng ko'lamma namoyon eta olmaydi. Sobiq sovet tuzumi davrida erkin fikrlash imkonini berilmagan edi. Odamlarning qanday fikrlashlari buyruqlar, ko'rsatmalar asosida belgilab qo'yilar edi. Natijada bunday mezonlar tafakkur turg'unligiga olib keldi. Aqlni ishlatmay yuqorida berilgan ko'rsatmalar bajarilar edi. O'zining biror fikrini aytmoqchi bo'lganlar "xalq dushmani", "millatchilar", "millatchi" deyilar edi. Bu davrda xalq ommasi ham mustaqil fikrlash imkoniyatidan mahrum qilib qo'yildi. Rahbarlarning ketidan, ko'ru kar bo'lib indamasdan

boradigan olomonga aylantirib qo'yildi. Bu milliy ongning rivojlanishiga, millatning o'z manfaatlarini anglab olishiga xalaqit qildi.

Mustaqillik sharoitida esa ma'naviyatni keng ko'lama rivojlantirish imkonlari kengaydi. Fuqarolarning erkin fikrlashlari uchun imkon yaratish zarurati kuchaydi. Milliy tafakkurga millatning axloqi, psixologiyasi, tarixiy an'analari, turmush tarzi, mehnat faoliyatining xususiyati va yo'nalishlari bevosita ta'sir etadi. Ma'naviyatni rivojlanishida din ham keng ko'lamli o'rinn tutadi. Jamiyat hayotidagi va shaxsiy hayotdagi barcha muamolarni hal etish uchun inson o'zi ruhan, vijdonan pok, iymonli, halol e'tiqodli bo'lishi kerak.

Ma'naviy tarbiyada ayniqsa dinning o'rni katta. Din o'zining ijtimoiy ta'siri va kuchi jihatidan har qanday mafkuradan ustun turadi. Jamiyat hayotida ko'plab siyosiy mafkuralar o'tib ketdi, lekin, din zaiflashmadi. U kishilarning ongi, e'tiqodi, faoliyati, axloq-odobiga doimo ta'sir etib keldi. Dinsiz jamiyat ma'naviy jihatdan zaif va qashshoq bo'ladi. Din asrlar davomida odamlarni ulug' maqsadlar yo'lida birlashishiga, hamjihat bo'lishiga, tinch totuvlikni mustahkamlashiga, mehnatsevarlikka, mehr oqibatga chorlab kelgan. Uning bu da'vatlaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Din siyosat emas, balki, ma'naviyat ekanligini unutmaslik kerak. Diniy va dunyoviy bilimlarni egallashga intilishni, odamlarni qadrlashni islom dini muqaddas deb biladi. Diniy e'tiqod bilan dunyoviy bilimlar birlashsagina ular inson qalbidan chuqr o'rinn oladi. Bu hozirgi kunda juda muhim.

Hozirgi vaqtida yoshlarning tarbiyasida ulardagi vatanga mehr tuyg'usini burch, masuliyat, iymon, e'tiqod darajasiga ko'tarishga tobora ehtiyoj kuchayib bormoqda. Yangi O'zbekistonda vatanparvarlik taraqqiyot taqdirini o'z qo'liga olgan vatan imkoniyatlaridan oqilona foydalanish yo'liga o'tgan, milliy birlik, tenglik va teng huquqlilik borasidagi qadriyatlarga tayanib, milliy o'zlikni anglagan xalq ma'naviyati yuksak xalq hisoblanadi. Milliy ma'naviyatning rivojlanishida tarixni bilish va u bilan faxrlanish kerak.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarix kishilarning ma'naviyati, iymon e'tiqodi, ruhiy faoliyatiga kuchli ta'sir etuvchi omildir. O'zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish uchun Turkiston xalqlarining jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasini bilish kerak; milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bilish va hurmat qilish; huquqiy-axloqiy burch va masuliyatni kuchaytirish; bozor munosabatlari sharoitida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirish; yurtimizda tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni saqlashga intilish; halol, ijodiy fidokorana mehnat qilish va vatan boyligiga boylik, qudratiga qudrat qo'shish; xalqaro munosabatlarda vatan, millat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish; yoshlarni harbiy vatanparvarlik an'analariga sadoqat ruhda tarbiyalash; O'zbekistonning davlat ramzlariga hurmat ko'rsatish va hokazolar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz/Toshkent - "O’zbekiston" – 2017
2. I.A. Karimov O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka, tahdid, barqarorlik shartlari va taraqiyot kafolatlari/ Toshkent, "O’zbekiston".1997.
3. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. - T.: O’zbekiston, 1998.
4. Yusupov E. Yoshlarning ma’naviy kamoloti, T., 1995.
5. Nazarov Q. Aksiologiya. “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” T.,2011.
6. Turdiyev, B. S. (2021). Cultural and educational development of society in the scientific heritage of world philosophers. Academic research in educational sciences, 2(4), 443-451.
7. Sobirovich, T. B., & Elmuratovna, Y. A. (2025). Strengthening National Spiritual Immunity and Combating Destructive Ideologies in New Uzbekistan. Asian Journal of Basic Science & Research, 7(2), 101-108.